

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING PRAGMATIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ravshanova Rayhona G'olibbek qizi

Magistratura talabasi rayhonravshanova960@gmail.com

MUHOKAMA

Maqollar-xalq donishmandligining ixcham shakli bo'lib, madaniyat, tarix va dunyoqarashni aks ettiradi. Ular semantik jihatdan figurativ (ko'chma ma'no) va pragmatik jihatdan kontekstga bog'liq vosita sifatida ishlatiladi. Ingliz va o'zbek maqollari o'xshash universal qadriyatlar (mehnat, do'stlik, sabr)ni ifodalasada, madaniy farqlar (inglizlarda individualizm va pragmatizm, o'zbeklarda kollektivizm va axloqiy majburiyat) orqali farqlanadi.

Semantik xususiyatlar: Semantika — maqollarning lug'aviy va ko'chma ma'nosi, ularning ichki tuzilishi (metaphor, parallelism, ellipsis)ni ko'rib chiqadi.

Umumiy xususiyatlari: Maqollar ko'pincha figurativ bo'lib, literal (to'g'ridan-to'g'ri) ma'no o'rniga chuqurroq ma'noni anglashni ifodalaydi. Ular metaphor, irony, hyperbole va symbolismdan foydalanadi.

Parallelizm va ellipsis (qisqartirish) orqali ixchamlik ta'minlanadi.

Ko'p ma'nolilik (polysemy) va kontekstga bog'liqlik mavjudligini ifodalaydi.

Maqollar – bu xalq tajribasining qisqa, obrazli va umumlashgan ifodasidir. Ingliz va o'zbek maqollarida quyidagi semantik jihatlar kuzatiladi:³¹

a) Umumlashganlik va ko'p qatlamli ma'no

Har ikki tilda maqollar ko'pincha bevosita (literal) va ko'chma (metaforik) ma'noga ega. Inglizchada, "Time is money"-vaqtning qadrini bildiradi.

O'zbekchada, "Vaqt – oltin"-mazmun jihatidan deyarli ekvivalent

Bu yerda semantik parallelizm kuzatiladi. bundan tashqari maqollar ko'pincha obrazlar orqali fikrni yetkazadi.

Inglizchada: "Don't count your chickens before they hatch". O'zbekchada: "Jo'jani kuzda sanaydi"

Ikkalasida ham natijani oldindan baholamaslik g'oyasi bor, lekin obrazlar turlicha.

Semantik jihatdan ayrim maqollar milliy dunyoqarashni aks ettiradi:

O'zbek maqollarida dehqonchilik, oila va jamiyat qadriyatlari ko'proq

Ingliz maqollarida individualizm, vaqtni boshqarish, pragmatik fikrlash kuchliroq

Masalan:

"My home is my castle" (ingliz) → shaxsiy hudud muhimligi

"Mehmon otangdan ulug'" (o'zbek) → mehmondo'stlik qadriyati

Pragmatika maqolning qaysi vaziyatda, qanday maqsadda ishlatilishini o'rganadi.

³¹ Vinogradov V.V. Leksikologiya i leksikografiya. – Moskva: Nauka, 1977.

Maqollar ko'pincha: nasihat berish, ogohlantirish, ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash uchun ishlatiladi.

Masalan:

Inglizchada: "Actions speak louder than words" → tanbeh yoki motivatsiya

O'zbekchada: "Gap bilan emas, ish bilan" → xuddi shu pragmatik vazifani ham ifodalaydi.

Bundan tashqari maqollar kontekstga ham bog'liqliq holda bo'ladi.

Maqolning ma'nosi ko'p jihatdan vaziyatga bog'liq.

Bir xil maqol turli vaziyatda turli ohangda (hazil, tanbeh, maslahat) ishlatilishi mumkin. Bu pragmatik moslashuvchanlikni ko'rsatadi.

Ijtimoiy va madaniy normani ifodalash orqali maqollar jamiyatdagi "to'g'ri" xatti-harakat modelini ko'rsatadi:³²

O'zbek tilida kollektiv qadriyatlar (hamjihatlik, hurmat)

Maqollar nutqda: argumentni kuchaytiradi, fikrni qisqa va ta'sirchan qiladi, suhbatdoshni ishonitirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pincha individualizm, pragmatizm va shaxsiy mas'uliyatni aks ettiradi. Tabiat, dengizchilik, savdo va shaxsiy tashabbuskorlikni ustun quyadi.

Misollar: "A bird in the hand is worth two in the bush" ushbu maqolni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin. Qo'lda bir qush ikki butadagidan qimmatroq. Bu yerda semantika mavjud narsani qadrlash bo'lsa pragmatika ehtiyotkorlik. Metafora esa qush, ya'ni - imkoniyat.

"Every cloud has a silver lining" — Har bir bulutning kumush cheti bor. Ushbu maqolni ham ko'rib chiqsak, semantik jihatdan qiyinchilik ortidan baxtli hayot kelishi va bu faqat umid bo'lib qolmasligini nazarda tutiladi. Metafora jihatidan esa ob-havo, bu – hayot ramzi sifatida qaralgan.

"The early bird catches the worm" — Ushbu maqolni so'zma-so'z tarjima qilinganda o'zbek tiliga ma'no anglatmaydi ammo uni tahlil qilish va muqobil variantlarini quyish kerak bo'ladi. So'zma-so'z tarjimada quyidagicha bo'ladi - Erta qush qurti ushlaydi. Semantik jihatdan tahlil qilsak tashabbuskorlik muvaffaqiyat keltiradi.

O'zbek maqollari asosan quyidagi mavzularda ko'proq uchratishimiz mumkin.

Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, tabiat va jamoaviy hayot masalalari ustida uchratishimiz mumkin. Asosan diqqatni ushbu predmitlarga qaratiladi - Sabr, mehnat, birlik va axloqiy tarbiyaga urg'u beriladi.

Misol uchun ushbu maqolda "Olma pish, og'zimga tush" maqolida olma pishishi va inson og'ziga tushishi bu ko'chma ma'noni anglatadi va asosan bu dangasa va orzusi yo'q insonni tasvirlaydi.

XULOSA

³² Kunin A.V. Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. – Moskva, 1984.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek maqollari til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etuvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi.

Ularning semantik xususiyatlari, avvalo, umumlashganlik, obrazlilik va ko'p qatlamli ma'no orqali ifodalanadi. Har ikki tilda uchraydigan maqollar insoniyatga xos bo'lgan universal tajribani aks ettiradi, ya'ni vaqt qadri, mehnat, sabr, ehtiyotkorlik kabi tushunchalar umumiy semantik asosga ega ekanligini ko'rish mumkin. Shu jihatdan ingliz va o'zbek maqollari o'rtasida semantik yaqinlik va muqobillik mavjud.

Biroq mazkur birliklarning chuqurroq tahlili ularning milliy-madaniy xususiyatlarini ham ochib beradi. O'zbek maqollarida ko'proq jamoaviylik, oila qadriyatlarini, mehmondo'stlik va ijtimoiy uyg'unlik ustuvor bo'lsa, ingliz maqollarida individualizm, shaxsiy mas'uliyat va pragmatik yondashuv ustunlik qiladi. Bu esa maqollarning semantik tarkibida milliy dunyoqarash, tarixiy taraqqiyot va turmush tarzining aks etishini tasdiqlaydi.

Pragmatik jihatdan esa maqollar nutq jarayonida muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat fikrni ixcham va obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi, balki suhbatdoshga ta'sir o'tkazish, nasihat berish, ogohlantirish yoki ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning qo'llanishi kontekstga bog'liq bo'lib, ularning ma'nosi nutq vaziyatiga qarab kengayadi yoki torayadi. Shu sababli maqollarni pragmatik jihatdan o'rganish ularning haqiqiy kommunikativ qiymatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda maqollar nutqning ekspressivligini oshiruvchi, argumentativ kuchini mustahkamlovchi va madaniy identifikatsiyani ifodalovchi vosita sifatida faol ishlatiladi. Ularning diskursdagi o'rne beqiyos bo'lib, ular orqali jamiyatning axloqiy-me'yoriy qarashlari avloddan-avlodga uzatiladi.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek maqollarining semantik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhim ilmiy natijalar beradi. Mazkur tadqiqot maqollarning faqat til birliklari emas, balki xalq tafakkuri va madaniy xotirasining muhim elementi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004.
- 2.Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. – Berlin: Mouton, 1985.
- 3.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

4.Yo'ldoshev B. O'zbek xalq maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2000.

5.Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

6.Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.